

TIPOLOGIK METOD HAQIDA QARASHLAR

Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz tili
filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti sharq tillari (arab
tili) yo'nalishi 102-guruh talabasi
Usmonaliyeva Yulduzxon Yahyobidin qizi
Ilmiy maslahatchi: **Kabulova U. S.**

Annotatsiya: Tilshunoslik fanida turli shakldagi metodlar o'rganilar ekan, bu o'z navbatida metodlar bilan tanishib chiqimiz uchun imkonoyat yaratadi. Shuningdek ushbu maqolada tilshunoslikdagi tipologik metodning mohiyati, tarixiy shakllanish bosqichlari hamda zamonaviy tadqiqotlardagi o'rni ham ko'rsatib o'tiladi. Tipologik metodda tillarning struktur, funksional va morfologik jihatlariga ko'ra solishtiriladi.

Kalit so'zlar: *tipologik metod, fonetik tizim, sintaktik hodisa, struktur, funksional, morfologik metod.*

Аннотация: Поскольку в лингвистике изучаются различные методы, это, в свою очередь, даёт нам возможность познакомиться с ними. В данной статье также раскрывается сущность типологического метода в лингвистике, этапы его исторического становления и роль в современных исследованиях. Типологический метод сравнивает языки в структурном, функциональном и морфологическом аспектах.

Ключевые слова: *типологический метод, фонетическая система, синтаксическое явление, структурный, функциональный, морфологический метод.*

Annotation: Since various methods are studied in linguistics, this in turn creates an opportunity for us to get acquainted with the methods. This article also shows the essence of the typological method in linguistics, the stages of its historical formation, and its role in modern research. The typological method compares languages according to their structural, functional, and morphological aspects.

Keywords: *typological method, phonetic system, syntactic phenomenon, structural, functional, morphological method.*

Tilshunoslik fanida metodlar haqida gap borar ekan, V. fon Gumboldt, E. Sapir, J. Greenberg kabi jahon tilshunoslari qarashlari bilan bir qatorda, A. Abduazizov, M.Yo'ldoshev, E.Begmatov, R.Sayfullayeva kabi o'zbek tilshunoslarining ilmiy izlanishlarini ham ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotda tipologik metodning struktur, funksional va universal yo'nalishlari, shuningdek, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli jihatlari asoslab ko'rsatilgan. Natijada, tipologik metod tillarni faqat genealogik

jihtadan emas, balki tizimli-funksional o'xshashlikka xizmat qiluvchi zamonaviy lingvistik metod sifatida baholanadi. Bugungi kunda bu yondashuv kognitiv tilshunoslik, kompyuter lingvistika va korpus tadqiqotlarida ham muhim ahamiyat kasb etayotgani ta'kidlanadi. Tilshunoslikda turli metodlar tilni o'rganishning asosiy ilmiy vositasi hisoblanadi. Ular orasida tipologik metod tillarning struktur, funksional va morfologik o'xshashlik hamda farqlari asosida tahlil etadigan fundamental yondashuv sifatida alohida o'rin tutadi. Tipologik metodning shakllanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda V. fon Gumboldt, A. Shleyxer, keyinchalik E. Sapir va J. Greenberg kabi olimlar tillarning genealogik (kelib chiqish) qarindoshligidan qat'i nazar, ularning struktur o'xshashliklarini ilmiy asosda o'rganishgan. Tipologik metodning mohiyati asoslab o'tilganda, tipologik metod tillarning struktur va funksional belgilariga qarab tasniflash hamda o'zaro qiyoslash usuli ekanligi oydinlashadi. Ya'ni uning asosiy maqsadi — turli tillarda bir xil yoki o'xshash grammatik, fonetik, sintaktik va semantik hodisalar qanday ifodalanishini aniqlashdir. Shu bilan, tipologik metod genealogik tahlildan farqli ravishda tillarning kelib chiqishtamoyili emas, balki tuzilish tamoyillaridagi o'xshashlikni aniqlaydi. Masalan, o'zbek tili va yapon tili genealogik jihatdan bog'liq emas, biroq ikkalasi ham agglutinativ tuzilishga ega bo'lib, bu ularni morfologik tipologiya nuqtai nazaridan bir guruhga kiritadi.¹

Tipologik metodning tarixiy rivoji haqida fikr yuritilgan bir paytda tipologik fikrlarning boshlanishi V. fon Gumboldtning "tilning ichki shakli" haqidagi g'oyalaridan kelib chiqqan. U tillarni izolyativ, agglutinativ, flektiv va inkorporativ tiplarga ajratgan². E. Sapir bu qarashlarni kengaytirib, tillarning morfologik tipi ularning grammatik tuzilishini belgilovchi asosiy omil ekanini isbotlagan.³ XX asr o'rtalarida esa J. Greenberg tipologiyani empirik asosda rivojlantirib, miqdoriy tahlil metodlarini kiritdi. Bu tilshunoslikda statistik va struktur tipologiya bosqichiga o'tish ekanligini aniqlagan⁴. Tipologik va qiyosiy metodlar farqi shundaki har ikkisi ham tillarni solishtirishga asoslanadi, ammo tadqiq obyekti va maqsadi bilan farqlanadi. Ya'ni qiyosiy-tarixiy metod tillarning kelib chiqish qarindoshligini aniqlaydi, tipologik metod esa tillarning struktur o'xshashlik va universalligini aniqlaydi⁵. Qiyosiy metod "tarixiy ildiz"ni, tipologik metod esa "struktur tuzilma"ni aniqlab keladi. O'zbek tilshunosligida tipologik yondashuv 1960-yillardan boshlab faol rivojlandi. Bu sohada

¹ Sapir, E. Language: An Introduction to the Study of Speech. - New York: Harcourt, 1921.

² Comrie, B. Language Universals and Linguistic Typology. Oxford: Blackwell, 1981.

³ Greenberg, J. Universals of Language. Cambridge: MIT Press, 1963.

⁴ Croft, W. Typology and Universals. Cambridge University Press, 1990.

⁵ Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press, 2003.

⁶ Abduazizov, A. Umumiy tilshunoslik. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2008.

⁷ Yo'ldoshev, M. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

A. Abduazizov, M. Yo‘ldoshev, E.Begmatov, A.Hojiyev, R.Sayfullayeva kabi olimlar muhim hissa qo‘shganlar. Masalan, A. Abduazizov o‘zbek tili fonetik tizimini ingliz tili bilan funksional-tipologik asosda qiyoslagan⁶. M.Yo‘ldoshev esa til sistemasi va strukturasini turkiy tillar misolida tahlil qilib, ularning morfologik tipologiyasini aniqlagan⁷. Shuningdek, R.Sayfullayeva va Sh.Rahmatullayevlar o‘zbek tili grammatik strukturasini va boshqa turkiy tillar o‘rtasidagi tipologik o‘xshashliklarni aniqlashgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tipologik metod — zamonaviy tilshunoslikning universal qonuniyatlarni ochishga xizmat qiluvchi asosiy ilmiy metodlaridan biri. U genealogik bog‘liqlikdan qat’i nazar, barcha tillarda uchraydigan struktur va funksional o‘xshashliklarni aniqlaydi.

Bugungi kunda tipologik metod korpus lingvistika, kognitiv tilshunoslik, sun’iy intellekt va mashina tarjimasini tizimlarida ham faol qo‘llanilmoqda. Demak, tipologik metod tilshunoslikni empirik, tizimli va umumlashma darajasi yuqori fan sifatida shakllantiruvchi eng muhim metodlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov, A. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2008.
2. Comrie, B. Language Universals and Linguistic Typology. — Oxford: Blackwell, 1981.
3. Croft, W. Typology and Universals. — Cambridge University Press, 1990.
4. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. — Cambridge University Press, 2003.
5. Greenberg, J. Universals of Language. — Cambridge: MIT Press, 1963.
6. Sapir, E. Language: An Introduction to the Study of Speech. — New York: Harcourt, 1921.
7. Yo‘ldoshev, M. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.